

## XOJAGON TARIQATI MANBALARI TA'LIMOTIDA KOMIL INSON TUSHUNCHASI

**Fayziyeva Dilorom Shabonovna**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" yo'naliishi II bosqich doktoranti*

---

### ARTICLE INFO.

---

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, tafakkur, ilm, vijdon, vatanparvarlik, ijtimoiy hayot, axloqiy tarbiya, bilim, ezgu ishlari, komil inson, naqshbandiya, xojagon, nafs, "menlik", "bizlik"

### Annotation

---

Aytish joizki, komillik ijtimoiy voqe'lik sifatida kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida mavjud. Ma'lumki, O'rta Osiyo va ayniqsa, bizning Vatanimizda keng tarqalgan tasavvufning xojagon, naqshbandiya, kubroviya va boshqa tariqatlar ta'lomitlari hindlarning yogachar ta'lomitlaridan farqli tarkidunyo qilmasdan (xalqdan ajralmasdan) insonning nafaqat jismonan balki ichki ruhiy va ma'naviy dunyosini mukammal tarbiyasini ham qamraganligi bilan yuqori kamolot darajasiga-ya'ni komil inson bo'lishga erishish uchun xizmat qila oladi. Ushbu maqlolada xojagon tariqati manbalarida shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati ularning inson kamolotidagi o'rni kabi masalalar haqida fikr yuritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

---

Komillik – bugungi kun insonlari uchun qadrli va kerakli bo'lgan tushuncha. Har bir inson umri davomida erishgan tajribalari, bilimlari, ko'nikmalari asnosida hayot kechiradi. U o'z hayot yo'lini va bu yo'lda sodir etgan barcha a'mollarini o'zicha baholaydi. O'zga insonlarning bildirgan ijobiy fikrlari yoqimli, albatta, lekin tanqid hamisha ham hammaga yoqavermaydi. Inson hayoti davomida goho bilib, goho bilmay, juda ko'p xato va gunoh ishlarni sodir etadi. Bu esa ayrim hollarda jiddiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlardan saqlanish uchun komillikka erishish lozim.

Xalq hamisha komillikka intilib, yaxshi niyatlar bilan yashaydi. El-yurtga naf keltirishni oilasini mustahkam, o'z turmushini obod qilishdan boshlaydi. Bu ezgu yo'lda milliy qarashlar va an'analarga suyanadi, bobomeros qudratdan kuch oladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga shunday dedi. Murojaatnomada "Jamiyat islohotlar tashabbuskori, degan fikr odatiy holdir. Faoliyatimizga chuqurroq kirib borishimiz kerak" odamlarning faol va faol bo'lishi zarurligiga e'tibor beradi. Ilm-fan, bilim, dunyoqarash keng bo'lgan joyda faollik ko'rinadi. Shu ma'noda u inson tafakkurining boy ma'naviy merosi hisoblangan so'fiylik va uning ijtimoiy faollik motivatsiyasi bilan farq qiladi. Mazhablar ichida jahon ahamiyatiga ega xojalar Naqshbandiyadir. Shu xususda dinka munosabat alohida o'ren tutadi. O'rta Osiyo mutafakkirlariining ta'lomitida komil inson muammosi tasavvuf asosiga qurilgan(Shayx Nasafiy, Hakim Termizi, Abdulkholiq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar). Komillikning ichki (sub'ektiv) zaxiraviy manbalar to'g'risida fikr yuritilganda, ularning ta'lomitlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Psixologik bilimlarning shaxs ruhiy faolligi haqidagi mulohazalari hind qadimiy asarlari «Mahobhorat» va «Ramayana»da ham uchraydi «Mahobhorat»ning «Bxagavadgita» (jozibali) bobida psixologik

masalalar to‘g‘risida mulohaza yuritiladi hamda moddiy dunyo tobelligidan, ichki moddiy ehtiyojlar qulligidan, qutilishga da‘vat qilinadi. Inson psixikasini shaxsan boshqarishga erishishning yana bir yo‘nalishi-dzen buddizmdir. Bu ta‘limotning asosiy mohiyati xufyona-ovozi chiqarmasdan, xayolga cho‘mish orqali ichki to‘g‘ri yo‘naltirilganlikka erishishdan iboratdir. Ushbu ta‘limotda maxsus mashq texnikasi yaratilgan bo‘lib, unga amal qilgan holda inson o‘z tanasining faoliyatini o‘z aqliga tobe qilgan tarzda avval psixikasining muvozanatiga, keyinchalik esa o‘zidan o‘zi dasturlashtirilish bosqichiga erishiladi.

Antik dunyo yunon mutafakkirlari inson xayoti mobaynida barcha psixologik iztiroblarda: affekt, frusturatsiya, stress holatlarida o‘z—o‘zini boshqara olish va nazorat qila olish, tashkillashtirish muammolariga qadimdan ahamiyat berib kelishgan. Chunki ular inson qisqa umri mobaynida baxtga erishishga har doim ham haqli deb qarashgan. Shuning uchun ular inson o‘zini o‘rgana oladi, uning intellektual aqliy sifatlari bunga qodir, insonning o‘zi yaratgan ichki timsoliy psixologik obrazlari, tasavvurlari tashqi halol sa‘i—harakatlarni tashkillashtirishida o‘z ifodasini topishi lozim deb qarashgan.

Sharqning buyuk mutafakkirlari tomonidan barkamol insonning o‘ziga xos axloq me'yorlari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sifatlarga ega bo‘lish har bir odamning orzu—armoni deb qaralgan. Bundan yana shu ham ma'lum bo‘ladiki, o‘rtalasrdagi yaxshi axloq, barkamol inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega – bir tomonidan, jami ruhiy—ma’naviy qudrat, zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan ilohiy bir zot tushunchasi, ikkinchi tomonidan shu cho‘qqiga intilib, muayyan martabalarga erishgan kishi ham barkamol inson deb hisoblangan. Ammo masala qanday qo‘yilishidan qat’iy nazar, barkamol inson haqidagi g‘oyalari katta ijtimoiy—axloqiy ahamiyatga ega bo‘ldi, insonni sharaflı, ezzulik ruhida tarbiyalash, mehr—u muruvvat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qildi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo‘ya qiliqlardan saqlanishga ko‘maklashdi, iyomon va vijdon binosining paydo bo‘lishini ta‘minladi

Abu Ali ibn Sino fikricha, insonning xulqi va ruhi uch sabab bilan komillikka erisholmaydi:

- Inson yer yuzida yaratilganlar orasida eng mumtozidir. Ammo insonlar qizg‘anchilik sababi bilan bir—birlarining qo‘llarida bo‘lgan narsalarga ko‘z tikadilar. Bu esa o‘z navbatida qusurli behalovatlikni keltirib chiqaradi.
- O‘z ishonchini, mazhabini va qabilasini boshqalardan ustun ko‘rmoq insonlar orasida nifoqlarga yo‘l ochadi.
- Xurofotlar va sust (asossiz) ishonchsizlik insonlikning takomilini orqaga suradi va tushunmovchiliklarini yuzaga keltiradi.

Bu borada Hazrat Alisher Navoiyning ham komil inson borasidagi tushunchalarini keltirib o‘tsak. A.Navoiy ma’naviyat barkamol shaxs tarbiyasida katta ahamiyatga ega deb biladi. A.Navoiy qarashlarida ma’naviy barkamol inson aqliy, axloqiy, jismoniy kamol topgan shaxs, ilm—ma’rifatga intilgan ijodkor, qobiliyatli, bilimdon, oqil va dono kishi, sofdil, insonparvar, sahovatli, sabr—qanoatli,adolathi, muruvvatli, kamtar, odobli, xushfe'l shaxs, sog‘lom va jismonan baquvvat, mardlik va jasurlik xislatlariga ega insondir. A.Navoiy axloq va aql haqiqat mezoni adolat va yaxshilikni barqaror etuvchi omil bo‘lgani uchun axloqiy kamolotga intilishni har bir odam uchun zaruriy ish deb biladi hamda shunday intilishni talab qiladi Barkamol inson, insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo‘tabar zotdir. U axloqiy—ma’naviy poklanish jarayonida barkamollikka erishadi.

Alloma Jaloliddin Davoniy bolalarni tarbiyalashda, ularni komil bo‘lib yetishishida ilm—fan bilan shug‘ullanishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Inson xususiyatlarni yoshlikdan, tarbiya natijasida kishilar bilan o‘zaro munosabatda kasb qiladi. Davoniyning fikricha, har bir fazilat vaqt o‘tishi bilan yangilanish va o‘zgarishga qobildir, u doimo rivojlanadi, takomillashadi. Davoniy insoniy fazilatlarni to‘rtga bo‘ladi: bular donolik,adolat, shijoat va iffatdir.

Yusuf Hos Xojib e'tiqodiga ko'ra, axloqiy kamolot — insonning butun hayot va faoliyatining birlamchi asosidir. U, jumladan, bunday deb yozgan edi: "Kimning odobi yaxshi va axloqi to'g'ri bulsa, u kishi o'z maqsadiga yetadi va baxt unga kulib boqadi", zero "yaxshi axloq — jamiki, yaxshiliklarning zaminidir". Ma'lumki, O'rta Osiyo va ayniqsa, bizning Vatanimizda keng tarqalgan tasavvufning xojagon, naqshbandiya, kubroviya va boshqa tariqatlar ta'lomitlari yuqorida keltirilgan hindlarning yogachar ta'lomitlaridan farqli tarkidunyo qilmasdan (xalqdan ajralmasdan) insonning nafaqat jismonan balki ichki ruhiy va ma'naviy dunyosini mukammal tarbiyasini ham qamraganligi bilan yuqori kamolot darajasiga ya'nii komil inson bo'lishga erishish uchun xizmat qila oladi.

Tasavvufda barkamol inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi, barkamol inson Olloh bilan odamlar orasidagi vositachi, ilohiy amr, g'ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug' homiyidir, barkamol inson shu sifatlari bilan mutlaq ilohiy hislatlarni jamlagan kayxoniy mavjudlikdir, u agar oddiy inson suratida ko'rinsa ham, lekin ma'nан koinotni qamrab olgan hamisha bedor va hamma narsadan xabardor bir olamning haqiqiy mohiyatini anglagan karomat sohibidir Zero, Abdulxoliq G'ijduvoniy asos solgan xojagon (naqshbandiya) tasavvuf tariqati ta'lomitining «Hush dar dam», «Nazar bar qadam», «Safar dar Vatan», «Xilvat dar Anjuman», «Yodkard», «Bozgasht», «Nigohdosht», «Yoddosht», qoidalariga erishishi (o'zlashtirishi, yetishishi) va unga batamom amal qilish insonni komillik pog'onasiga ko'tarishga qodirdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Abdulxoliq G'ijduvoniy tariqati ta'lomitining tahlili va talqini quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi. Abdulxoliq G'ijduvoniy ta'lomi to'g'risida shuni aytish joizki, zohiriy bilimlarning harakatlantiruvchisi aql hisoblansa, botiniy bilimlarniki ishq hisoblanadi. Chunki haqiqiy ishq barcha qiziqishlar, turkilar, intilishlar, ehtiyojlar, motivlarning tabiiy yo'naltiruvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ham ishq tasavvufda Ollohg'a yaqinlashtiruvchi yagona quroq bo'lib xizmat qiladi Aytish joizki, tasavvuf shayxlaridan Najmuddin Kubro ham psixologik ta'sir o'tkazishning (tarbiyaning, interaksiyasining) inson ichki psixologik faolligini uyg'otish va uni shakllantirishning o'ziga xos o'nta talabi (Tavba, Zuhd, Tavakkul, qanoat, Uzlat, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Zikr, Rizo) asosida usullar majmuasini ishlab chiqqan(7). Piri komillarimiz inson psixikasining favqulodiy jihatlarini laduniy ilmi orqali chuqur bilganliklari tufayli uning ichki dunyosini o'zini o'zi boshqarishga, dasturlashtirishga erishish yo'llarini ko'rsatganlar, uni har xil modifikatsiyalarini ham tushunganlar. Jumladan, uzlatda chilla o'tirish orqali yoglarga o'xshab mukoshafaga erishganlar. Shayx Najmuddin Kubro fikriga ko'ra inson «Olami sug'ro», ya'ni kichik olam bo'lib, unda «olami Kubro»ning, binobarin, katta olamning barcha xususiyatlari mujassamdir. Uning talqinicha inson taraqqiy etib borsa, u Ollohning «Rahim va Rahmon» sifatlaridan boshqa barcha sifatlarini egallay oladi.

Bizningcha. o'zini o'zi anglashni komillik alomati sifatida talqin qilish hozirgi zamon psixologiya fani talablariga mutlaqo mos tushadi. Chunki o'zini o'zi anglash («Men» va «Biz» munosabati) ijtimoiy psixologik voqelik (hodisa) tariqasida namoyon bo'lishi uni tadqiq etish zaruratini kafolatlaydi. Ushbu masalaning ijtimoiy psixologik tabiatini tushuntirishda ikki xil yondashuv vujudga kelgan bo'lib, ular o'zaro keskin darajada tafovutga egadir. Birinchi yondashuv talqinicha, o'zini o'zi anglash-bu o'z yo'nalishini o'zgartirgan ongning aynan o'zidir (L. S. Vygotskiy(2) Ikkinci yondashuv S. L. Rubinshteynning(3) ilmiy izlanishlarida aks etgan bo'lib, keyinchalik uning shogirdi K. A. Abulxanova-Slavskaya tomonidan ushbu muammo rivojlantirilmoqda(1). Ikkinci yondashuv mohiyati shuki, o'zini o'zi anglashni shakllantirishning manbai ong va undagi ziddiyat bo'lmassdan, balki insonning ijtimoiy muhitda tarkib topishi hamda rivojlanishi sanaladi.

Yuqoridagi mulohazalarga tayanib komillik ijtimoiy voq'elik sifatida kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'lganligini va uni ommaviylashtirishning ham ichki, ham tashqi omillari mavjudligini hamda ularga ijtimoiy institutlar tomonidan qat'iy e'tibor qilish zarurligini takrorlash, uqtirish bilan ijtimoiy tasavvurni kengaytirish lozim ekanligini unutmaslik kerak.

Xoja Abdulxoliq ibn Abduljamil G'ijduvoniy tasavvufning yirik namoyandas, mashhur avliyo,

Xojagon nomi bilan shuhrat qozongan O‘rtta Osiyo tariqatining asoschisi va rahnamosi, 1103-yilda Buxoro yaqinidagi yirik savdo-sotiq karvon yo‘llaridan bo‘lmish G‘ijduvon qishlog‘ida ma’rifatli oilada tug‘ilgan. O‘z qishlog‘ida dastlabki ma’lumotni olgach, 22 yoshida ilmini takomilga yetkazish maqsadida Buxoroga keladi. Bu yerda o‘sha davrning yirik olimlari va tasavvuf namoyandalaridan yetarli ta’lim oladi. Ayniqsa, uning mashhur tasavvuf rahnamosi Abu Ya’qub Yusuf Hamadoniy (vaf. 1140 y.) bilan uchrashuvi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yusuf Hamadoniy uni so‘fiylik tariqatiga jalb qildi. G‘ijduvoniy dunyoqarashining poklanishida malomatiya ta’limoti va qalandarlar harakati anchagina ta’sir ko‘rsatdi. O‘zining bir qancha hajm jihatdan katta bo‘lмаган risolalarida tasavvufiyzohidlik bilan shug‘ullangan dindor, e’tiqodli muslimmon nuqtai nazaridan kelib chiqib, shariat ahkomlari va payg‘ambar alayhissalom sunnatlarini hamda tasavvufdagi yangiliklarni ildiz oldirib, mustahkamlashni targ‘ib qildi. Xalq ommasi – oddiy raiyat bilan yaqinlashish va ularning diniy e’tiqodiga xizmat qilish xojagon tariqatining asosi edi. Tasavvufning boshqa tariqatlaridan farqli o‘laroq G‘ijduvoniy so‘fiylar uchun maxsus xonaqohlar qurish va ularda yashashni ma’qullamas edi. G‘ijduvoniy o‘z ta’limotining sakkizta asosiy qonun – yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqdi. Uni tushida ko‘rib, tasavvufdan g‘oyibona ruhiy ta’lim olgan va G‘ijduvoniyni o‘ziga ustoz deb bilgan Bahouddin Naqshband (1318–1389) bu sakkizta yo‘l-yo‘riqlarni to‘laligicha qabul qildi va ularga o‘zi yana uchta qo‘shdi hamda jahon miqyosida shuhrat qozongan Naqshbandiya tariqatiga asos soddi. Tasavvufda muhim ahamiyat kasb etgan va so‘fiylar uchun maxsus ishlab chiqilgan bu 11 qonunqoida, yo‘l-yo‘riqlar quyidagicha:

- 1. Hush dar dam.** Bu tushuncha shundan iboratki, Xudo yodi uchun bajarilgan zikr asnosida ichdan chiqayotgan har bir nafas hushyorlik va ogohlilik ila chiqmog‘i lozim, toki bunda g‘aflat yuz bermasin.
- 2. Nazar bar qadam.** Solik (tariqat a’zosi) shahar, qishloq, sahro va boshqa har qanday joyda yurganda har bir qadamiga diqqat bilan razm solib, ogoh bo‘lib yurmog‘i kerak, toki uning nazari parokanda bo‘lmasin, lozim bo‘lмаган joyga bormagani ma’qul.
- 3. Safar dar vatan.** Bu qoida shundan iboratki, solik bashariy tabiatda safar qilsin, ya’ni bashariy sifatlardan mulkiy sifatlarga va zamima (qo‘srimcha) sifatlardan hamida (ma’qul) sifatlarga intiqol etsin, ya’ni o’tsin.
- 4. Xilvat dar anjuman.** Bu qoidaning tafsiloti uchun Voiz Koshifiyning o‘g‘li Ali Safiyning “Rashahot ayn al-hayot” asarida Bahouddin Naqshbanddan quyidagi qimmatbaho jumlalar keltiriladi: “Az hazrati Xoja Bahouddin pursidandki, binoi tariqati shumo bar chist? Farmudaand: Xilvat dar anjuman, bazoxir bo xalq va ba botin bo Haqqi subhona”. (Xoja Bahouddindan so‘rashibdiki, Sizning tariqatingizning binosi nimada? U kishi aytibdilar: anjumanda xilvatda bo‘lish, zohiran xalq bilan birga va ichida subhona taoloning haqqida bo‘lish).
- 5. Yodi kard.** “Rashahot” asarida bayon etilganidek, bu qoidaning ma’nosi til bilan yo qalb bilan zikr qilishdir.
- 6. Bozgasht.** Bu qoidaning ma’nosi shunday: zokir (zikr qiluvchi) har vaqt kalimai tayyiba (La ilaha illallohu Muhammadan rasululloh)ni aytib bo‘lgach, uning orqasidan o‘shal qalb, til bilan “Xudovando, mening maqsudim Sensan, Sening rizoyingni tilayman”, deydi. To‘g‘rirog‘i bu jumlalarni dilidan o‘tkazadi.
- 7. Nigohdosh.** Bu qoida shundan iboratki, tayyibiya kalimasini zokir dilida aytayotganda xotira boshqa tomonga chalg‘ib ketishidan ehtiyyot bo‘lishi lozim, ya’ni zokir bir damda o‘shal muborak kalimani bir necha bor takrorlab, xotirani jam qilib olmog‘i darkor.
- 8. Yoddosht.** Bu qoida Haq subhonani yodlashda solik hamisha ogoh bo‘lib turishi, o‘shal muborak a’molni doimo yodda tutishdan iboratdir.
- 9. Vuqufi zamoni** (vaqtincha turish). Bunda so‘fiy o‘z vaqtini qanday o‘tkazayotganini doimiy

kuzatib turadi. Agar taqvo bilan o'tkazayotgan bo'lsa, Allohga shukr aytsin, agar taqvo bilan o'tkazmayotgan bo'lsa, Allohdan kechirim so'rasi.

10. **Vuqufi adadi** (hisoblash uchun to'xtash). Xayoliy fikran takrorlayotgan ikki holdagi zikrini qayta-qayta takrorlab turish uchun belgilangan adadga qat'iy rioya qilishi va bu ko'rsatmaga to'la muvofiq bo'lishi kerak.
11. **Vuqufi qalbiy** (qalbda to'xtash). Qalbda muhrlangan Alloh nomini doim xayolda tutish, qalbida Alloh nomidan boshqa hech narsa yo'qligiga yana bir marta ishonch hosil qilish.

Xoja Jahon Abduxoliq G'ijduvoniyydan "Ma'rifat kamoloti" deb so'raganida, u kishi shunday javob beradi: "Xudo siz bilan unga ko'rish qudratini berdi. U o'z tilini va shirin so'z kuchini berdi Ulardan to'g'ri foydalanish baxtga olib keladi gunohning noto'g'ri yo'lida ishlatish esa baxtsizlik keltiradi chiqaradi. Insonda yuqoridagi latoiflar to'g'ri va haqiqat yo'lida ishlaydi to'liq bilim mavjudligini ko'rsatadi. Ma'rifat chegarasi – ruhdir boshqaruv vositasi sifatida faqat halol narsalardan bahramand bo'lish odad tusiga kiradi qilmoq", - u aytdi. Har doim o'ylang va hamma narsani o'yash bilan qiling. Shuningdek, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyy birodarlikka qabul qilindi. Yaratilayotgan kishiga beshta talab, ikkinchisi esa ilmdir dunyoviy ishlardan ustun bo'lishi kerak. Bilimingizni boyitish uchun doim vaqt topishi kerak. Har kim o'zi qilayotgan ishning ilmini bilishi kerak. Ilm-fan inson taraqqiyotining asosiy omili ekanligini ta'kidlab. G'ijduvoniyy ilm va ilmnинг muhimligini ta'kidlagan. U Gijduvoniyy ta'limotiga amal qilib, ta'limotini davom ettirdi. Mashhur so'fiy Orif ar Revgariy "Orifnomha" asarida "U orif emas. kimdir, ilm-fan va bilim boylarga, dunyoviy va boylarga "gidlar", bozor, lekin xor!, fanni qadrsizlantirish hujumchilardan norozi bo'ladi. Abduxoliq G'ijduvoniyy juda chuqur va bilimdon olim har tomonlama o'rganishga, amaliy bilim olishga chorlaydi. Har qanday harakat quyidagi ko'rsatmalarda chin yurakdan, samimiyat bilan to'lash kerak ta'kidlaydi. "Islom dini uch narsaga asoslanadi: birinchidan; Har safar senga ibodat qilaman aylarsiz-a! ilmidan xabardor bo'l, ikkinchisi; har bir ilmni o'rgangansiz qil! uchinchidan, nima qilsangiz ham, ixlos bilan qiling!" Shuningdek, Olam ustasi ilmni yuksak qadrlovchi ustozdir. Yusuf Hamadoniy haqida so'z borar ekan, u ham ilm-fan targ'ibotchisidir borligini faxr bilan ta'kidlaydi. Xoja Jahon hamisha shogirdlari, suhbatdoshlari davrasida sadaqa va xayrli ishlarga urg'u beradi. Abduxoliq G'ijduvoniyy tasavvuf va tasavvuf dunyoqarashida sof fikrlar muhim ekanligini ta'kidlaydi. Bu ta'limotda poklik asosiy sifatida qaraladi Amaliy hayotda, ishda va hayotda odamlarda poklik bilan munosabatda ko'rinadi Insonning toza tuyg'usi ma'naviyatni shakllantiradi. Chunki poklik, aqlzakovat va ishonchlilik, uyat va hayo, ornomus, zukkolik va topqirlik, sadoqat, Bu halollik, hayo va mehribonlik, tejamkorlik, mehribonlik kabi yaxshi xususiyatlar mujassamlashgan. Sof aql - bu ruhiy shaxs ortadi. Axloqiy poklik inson hayotida birinchi o'rinda turadi. Chunki axloqiy poklik va did bilan moddiyatparastlikka mutlaq qarshidir.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, tasavvuf islom shariati talablarini ham ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik kabi olivjanob fazilatlarni o'zida mujassam etib, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilishdan iborat. tasavvuf tariqatlari axloqiy Naqshbandiya ta'limoti g'oyalari insoniyatni kamolotga yetaklaydi va tanazzuldan asraydi. Olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, Bahouddin Naqshbandning ta'limiy-axloqiy merosidan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish, alloma g'oyalarni o'rganish jarayonida o'quvchi va talabalarning yosh psixologik xususiyatlarini hamda qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish, alloma qarashlari mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lishlari o'rganilayotgan muammoning ijobiyl yechimga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bahouddin Naqshband ta'limiy-axloqiy merosi g'oyaviy diniy, falsafiy, madaniy ta'lim-tarbiya ildizidir va milliy istiqlol mafkurasingning bosh g'oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. - М., 1980, с.113-259
2. Выготский Л.С. Собрание сочинений: Т.1.-М., 1982, с.168-174.
3. Валлон А. Психическое развитие ребёнка.-М., 1967, с. 58- 151.
4. Komilov N.Najmiddin Kubro-T. A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1995, 46b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent. Hilol, 2019. – B 4.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent. Hilol, 2019. – B 5.
7. A. Sh. Juzjoni. Tasavvuf va inson. Toshkent. 2001. – B. 9.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent. Hilol, 2019. – B 7.
9. Buxoriy Sadreddin Salim. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. Buxoro. 2006. – B. 14.
10. Voxidov R., Maxmudov M, Azimov Yu. Ulug‘ Xojaning ibrat va hikmatlari. Pedagogik mahorat, 2005. 1-son. –B.